

Amir Temur Is In European Works

¹Amanova Anorxol Choriyeвна, ²Buronova Mahkamtosh Xoliqulovna

³Toshmurodova Sarvinoz Quvondiq qizi, ⁴Murodova Mohinur Sattor qizi

^{1,2} Lecturers of the Denau branch of the Termiz state University, Uzbekistan.

^{3,4} Students of the Denau branch of the Termiz state University, Uzbekistan

Annotation: Amir Temur, known in Europe as "Tamerlane," greatly contributed to the comprehensive development of relations between east and west at the time. He was a member of Byzantium, Venice, Genoa, France, developed its economic and political ties with the European countries known in the Middle Ages. In the 15th century Amir Temur was decorated with a monument called "European Savior".

Key words: History of Temurids, European writers, ambassadors of Temurids, European kings.

*Biz kim mulki
turon, Amiru
turkistonmiz,
Millatlarning
eng ulug`i,
turkning bosh
bo`g`inimiz!*

Milliy davlatchiligimizning rivojlanishida munosib o`rin tutgan va o`rta asrlar tarixida o`chmas iz qoldirgan buyuk bobokalonlarimizdan biri sohibqiron Amir Temur dir. Amir Temur (1336-1405) – buyuk davlat arbobi, buyuk sarkarda, kuchli markazlashgan davlat asoschisi, ilm fan va madaniyat homiysi sifatida nafaqat o`rta osiyoda, balki butun yevropada ham dovrug` qozongan. Amir Temur mohir diplomat va siyosatchi edi. Yevropada "Tamerlan" nomi bilan mashxur bo`lgan Amir Temur o`z davrida sharq va g`arb o`rtasidagi savso-sotiq munosabatlarini har tomonlama rivojlanishiga katta etibor berdi. U Vizantiya, Venetsiya, Genuya, Fransiya, Angliya bilan ya`ni o`sha davrda mashxur bo`lgan yevropa davlatlari bilan iqtisodiy va siyosiy aloqa o`rnatish va mustahkamlash sohasidagi faoliyatini rivojlantirdi. XV asrda Amir

temurga “Yevropa xoloskori” degan yodgorlik o’natildi. Bunga o’sha davrda Yevropaga katta xavf solib turgan Usmonlilar sulolasi ustidan qozonilgan g’alabasi sabab bo’ldi. Bu g’alabadan so’ng Rim papalari va yevropa qirollari A.Temur huzuriga o’z elchilarini yo’llab o’z minnatdorchiliklarini bildirdilar. O’sha davrda A.Temur huzurida bo’lgan elchilar va savdogarlar buyuk bobokalonimiz haqida qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirganlar. Ular orasida ayniqsa elchi Ioann Grinlo, savdogarlardan Paole Zane, Beltramus de Mignanelli va Emmanuil Pilotti, ispan elchisi Klavixo va asir tushgan nemis askari Shiltberger esdaliklari muhim ahmiyat kasb etadi.

Chunonchi ulardan Fransiya qirolining elchisi Ioann Grinlo Amir Temur suxbatlarida ishtirok etgan va uning davlatini o’z ko’zi bilan ko’rgan birinchi yevropalik muallif edi. Grinloning asari “Temur va uning saroyiga oid xotiralari” deb nomlanadi. Asar fransuz va lotin tillarida bo’lib 23 bobdan iborat. Unda A.Temurning taxtga kelishidan boshlab 1402-yilgacha bo’lgan voqealar aks

etadi. Xotiralar bilan ilk marotaba tanishgan kishida u afsonalar va haqiqat omuxtasidan iborat degan taasurot tug’ilishi tabiiy. Haqiqatan ham muallif Amir Temur hayoti bilan bog’liq bizga ma’lim va noma’lum afsona va rivoyatlardan keng foydalangan. Masalan Amir temurning amir Husayn elchilari oldida ishlatgan hiylasi va Sohibqiron bilan Edigni (idiku)o’rtasidagi munosabat haqidagi hikoyalar shular jumlasidandir. Uning xotiralarida Amir Temur mahorati haqida quyidagicha ta’rif beriladi: Qisqacha aytganda Temurbey janggohlarda barchani, jumladan, ko’plab qirollar shahzodalarni yengdi, na biror shahar, na biror istehkom unga dosh bera oldi; u son-sanoqsiz shaharlaru qo’rg’onlarni zabt etdi, hisobsiz xalqlarni o’ziga tobe qildi; sanoqsiz muhorabalarda zafar qozondi va mana hozir ham u Buyuk Turkni (Boyazid Yildirimni) mahr etdi – Turkiya uniki bo’ldi, ko’plab qirollar va shahzodalar, katta hokimlar uning tarafida.

A.Temur faoliyatiga oid yana bir muhim manba Italiyalik Beltramus de

Mignanelli tomonidan yozib qoldirilgan “Temurlang hayoti” asari hisoblanadi. Chunki bu asar shaxsan muallifning ko’rganlari asosida yozilgan. Beltramus uzoq muddat Damashqda yashagan va Amir Temurning Damashq shahrini egallaganiga guvoh bo’lgan. Bu asar 1416-yilda lotin tilida yozilgan. Bundan tashqari u Anqara va Smirnaning olinishi haqida ham haqqoniy ma’lumotlar to’plagan.

Esdaliklar orasida eng qimmatbaho manbalardan biri ispaniyalik elchi Rui Gonzales de Klavixo kundaliklari hisoblanadi. Klavixo 1404-yilda Leon va Kastiliya qiroli Genrix III (1390-1406) ning topshirig’i bilan Samarqandga keladi. Uning asari “Samarqandga, Temur saroyiga sayohat kundaligi” deb ataladi. Klavixo kundaliklari ikki qismdan iborat bo’lib, birinchisida elchilarning Samarqandgacha boshidan kechirgan voqealar, turli hududlar tabiati, xalqlari turmushiga oid bo’lsa, ikkinchi qismda muallif Kesh va Samarqandda Temur saroyidagi uchrashuvlarni tasvirlaydi. Kundalikda o’sha vaqtlarda Ami Temur qo’l ostidagi mamlakatlar va

shaharlarning umumiy ahvoli, xalqining kun kechirishi, Temur va uning yaqinlari tashabbusi bilan bunyod etilgan binolar, qasrlar, masjidlar, madrasalar, xonaqohlar savdo rastalari, do’konlar, ustaxonalr; Temuriylar davlatining Xitoy, Hindiston, Oltin O’rda, Mo’g’iliston va boshqa mamlakatlar bilan bo’lgan siyosiy savdo aloqalari, Temur saroyida amalda bo’lgan tartib qoidalar va nihoyat, sohibqironning xotinlari va ularning mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o’rni haqida e’tiborga molik ma’lumotlar keltirilgan. Bugungi kunda Rui Gonzales de Klavixo kundaliklarining asl nusxasi Madriddin Milliy kutubxonada saqlanadi. Klavixo kundaliklari ilk marta I.I.Sreznevskiy tomonidan 1881 yilda Peterburgda rus tiliga tarjima qilinib, chop etilgan. O’zbek tiliga taniqli adabiyotshunos olim, professor Ochil Tog’ayev tomonidan tarjima qilingan.

Temur davri manbalari orasida eng bebahosi A.Temur va Yevropa qirollarining o’zaro maktublaridir. Masalan A.Temurning fransiya qiroliga yo’llagan maktubi mazmuni quyidagicha:

“Bizning ulug’ amirdan kutganimiz shuldurki, doimo bizga shohona maktublar yuborib, salomatliklarini bildirib tursalar, toki biz xotirjam bo’lgaymiz. Yana sizning savdogarlaringiz bu yerga qatnab tursalar, biz bu yerda ularni azizu mukarram tutg’umizdir, shuningdek, bizning savdogarlar u tarafga yuborilsa, siz ham aziz mukarram tutsangiz, hech kimsa ularga zo’rlilik qilmasa va zarar-zahmat yetkazmasa! Chunki dunyo savdogarlar bilan oboddir!”. O’z navbatida Karl VI ham A.Temurga javob maktubi yo’llagan. Unda asosan Temurning taklifini mamnuninyat bilan qabul qilagani o’z ifodasini topgan: “Yaratganning marhamati bilan franklar qiroli Karl muhtaram podshoh Temurbekka salom yo’llaydi va tinchlik tilaydi” Biz sizning ishlaringizni, foydali takliflaringizni qabul qilamiz, imkoni bor joylarda (ularga) barobar va undan ortiqroq iltifot ko’rsatishga va’da beramiz”. Bu maktublar 1996-yilgacha Fransiya davlat arxivida saqlangan va 1996-yilda birinchi prezidentimiz I.Karimovning Fransiya davlat

tashrifi chog’ida Fransiya Prezidenti Jak Shirak tomonidan tuxfa qilingan bo’lib hozirda Toshkentdagi “Temuriylar tarixi” davlat muzeyida saqlanadi.

Yevropa olimlari A.Temur va uning faoliyati haqida bindan 400 yil ilgari gapira boshlagan edi. 1553- yilda Florensiyada Perondino qalamiga mansub “Skifiyalik buyuk Tamerlan” kitobi bosilib chiqdi. Bu Yevropada Temur haqida ilk ilmiy tadqiqot hisoblanadi. XVI asrda yashagan ingliz shoiri Kristofer Morlning “Buyuk Temur” nomli tragediyasida yosh Teurbek o’zining tengsiz aqli salohiyati va shijoati bialn jahon tarixidagi qudratli podsholardan biriga aylanganligi namoyish etilgan. Bir necha yevropalik bastakorlar ham o’z operalarida A.Temur obrazini yaratganlar. XVI asr boshida Italian bastakori Gaspini Tamerlan operasini yaratdi. Mazkur opera Vena teatrida sahna yuzini ko’rdi. XVII asr G’arb adabiyotida yetakchilik qilgan klassizm oqimi vakillari ijodida ham sharq mavzusi muhim o’rin tutadi. Bular orasida Jak Pradoning “Temur yoxud

Boyazidning o'limi"asari keng shuhrat qozondi Bu asar keyinchalik yevropa opera san'atida A.Temur obrazini yaratilishida ham muhim manba bo'ldi.Ingliz yozuvchisi Xerold Lembning "Temur hukmdor va sarkarda"romani shunday so'zlar bilan boshlanadi: Bundan besh yarim asr muqaddam bir shaxs jahon hikmdori bo'lishni niyat qildi va bunga astoydil нуд bog'ladi . U nimaga qo'l urmasin, nimani niyat qilmasin, barchasiga muvaffaq bo'ldi,omad unga kulib boqdi. Nihoyat ,butun dunyo ul zotni buyuk hukmdor, ulug' sarkarda Temur deya ardoqlab tilga oladigan bo'ldi. XX asrda ham Amir Temur hayoti va faoliyati talay asarlarda badiiy talqin etiladi. Sobiq Ittifoq "Qalam ahli" kommunistik mafkura tazyiqi ostida bu qudratli shaxs obrazini tarixiy haqiqatga zid tarzda gavdalantiradi. Bu davrda shuhrat qozongan S.Borodinning "Samarqand osmonida yulduzlar"romani ana shunday asar edi.G'arb adabiyoti vakillari esa o'z asarlarida Amir Temur qiyofasini haqiqatga mos yoki yaqin talqin qildi, tarixda tutgan o'rni holisona baholandi.

Shu bilan birga yevropa olimlari o'z asarlarida uning salbiy tomonlari bilan birga muhim fazilatlarini ham sanab o'tganlar.Nemis olimi F.Shlosser o'zining "jahon tarixi"asarida:"Baxtiyor jangchi, jahongir, uzoq sharqda qonunshunos bilan birga o'zida, Osiyoda kam uchraydigan taktik va strategic bilimlarni ifodalaydi", - deb yozsa, atoqli nemis olimi va tarixshunosi M.Vamber: Temur o'z dushmanlariga nisbatan juda berahm edi, lekin sarkardalik, davlatni boshqarish va qonunchilik sohasida buyuk talantga ega edi", deb, fransuz olimi Lyangle eas "Temur olimlarga seriltifot edi.Bilimdonligi bilan bilan bir qatorda sofdilligini ko'rgan kishilarga ishonch bildir edi, u tarixchilar, faylasuflar,shuningdek, ilm-fan, idora va boshqa ishlarda iste'dodli bo'lgan barcha kishilar bilan suhbatlashish uchun ko'pincha taxtdan tushib, ularning yoniga kelardi, chunki temur bu soxalarga g'amxo'rlik qilishga asosiy e'tiborini berardi deb ta'riflaydi.

Sohibqiron Amir Temur mavzusiga qiziqish Fransiyada XX asrda yana kuchaydi.Xususan, Amir Temurning

insoniyat tarixida tutgan o'rnini va mavqeyi haqida o'nlab ilmiy, tarixiy va badiiy asarlar yaratildi. L.Buvingning "Temuriylar sivilizatsiyasi haqida qissa" (Parij,1926), A.Dyurre va R.Fovelning "Samarqand istehkomi" (Parij 1901), Shampdorning "Tamerlan" (1949), M.Persheroning "osiyo hoqonlari" (Parij, 1951), E.Berlning "Ovropa tarixi:Atilladan Tamerlangacha"(Parij 1946), R.Grussening "Sahro Sohibqironi"(1939), M.Brionning "Tamerlan. Asrlar xotiralari"(Parij1963), V.Jerarning Asrlar xotiralari. Tamerlan (Parij,1963), L.Kerenning "Tamerlan yoxud Sohibqiron saltanati" asarlari bunga yaqqol misol bo'ladi. Bu asarlar Amir Temurni yevropada tanilishiga va A. Temur shaxsini o'rganilishini davom etishiga katta hissa qo'shgan.

Bugun jahonning 50 dan ortiq mamlakatida temurshunos olimlar ilmiy izlanishlar olib bormoqda Temur va Temuriylar davriga bag'ishlangan ko'plab kitoblar chop etilmoqda. O'tgan 600 yil davomida Yevropa tillarida A.Temurga bag'ishlab yozilgan salmoqli

asarlarning soni 500 ga yetdi.Sharq tillarida esa 900 dan oshdi.

Bugungi kunda ham buyuk sohibqiron Amir Temurga bag'ishlab ko'plab asarlar yozilmoqda, turli davlatlarda haykallari o'rnatilgan, asarlari chet tillariga tarjima qilinib,u kishi hayotiga oid turli tadbirlar tashkil etilmoqda. Har yili 9-aprel bobomizning tavallud ayyomi yurtimiz va chet ellarda tantanali nishonlanadi.A.Temur shaxsi va faoliyatiga qiziqish xalqaro maydonda tobora ortib bormoqda.Ayniqsa Fransiyada 1988-yildan beri Temuriylar tarixi va madaniyatini o'rganuvchilar assotsiatsiyasi faoliyat yuritib kelayotgani fikrimizning yaqqol dalilidir.Bu assotsatsiya hamkorligida 1996-yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligi Parij shahrida keng miqyosda nishonlandi. Bundan tashqari assotsatsiya "La Temuride" jurnalini tashkil etgan bo'lib, bu jurnalda A.Temur va Temuriylar tarixiga oid yangi tadqiqot natijalari yoritib boriladi. A,Temurga bag'ishlanayotgan bunday e'tibor A.Temurni hozirgacha Yevropada



muhim ahamiyat kasb etishidan dalolatdir.

Maqolani tayyorlashda foydalanilgan manbalar:

1. Rui Gonzales de Klavixo
2. Vodiy media
3. Jan (Ioann)Amir Temur va uning saroyi
4. Daryo.uz